

**SINONIM IBORALAR, QO'SHIMCHALAR HAQIDA****Vahobova Bahora***Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sinonimlar mavzusiga oid umumiy tushunchalar berib o'tilgan hamda sinonim iboralar, qo'shimchalar haqida ham gap ketadi.

Kalit so'zlar. Sinonim, dominanta, lug'aviy sinonimlar, so'z turkumlari doirasidagi sinonimlar, sinonim iboralar, sinonim qo'shimchalar

Kirish. Har bir inson muloqot qilar ekan, muloqot jarayonida so'zlardan foydalanadi. So'zlovchi o'z nutqini tinglovchiga ta'sirchan qilib yetkazib berish hamda nutqini mazmunli qilishlik uchun, albatta so'z takroriga yo'l qo'ymasligi kerak. Buning uchun albatta har kim sinonimlardan foydalanadi. Sinonimlarni nutqimizda qo'llash uchun so'z boyligimiz ko'p bo'lishi kerak. Sinonimlar so'zning ma'no shakllaridan bo'lib, aytilishi, yozilishi xar xil lekin, ma'nosi, tushunchasi bir xil bo'lgan so'zlardir. Sinonim (qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib – bir nomli)deagn ma'nolarni anglatadi. Tilimizda bir so'zni bir necha xil ma'nolar orqali ifodalashga sinonimlar deyiladi. Sinonimlar nutqning ta'sirchanligini oshirish hamda so'z takrorining oldini olish uchun xizmat qiladi. Sinonim faqatgina so'zlar emas balki qo'shimchalar, iboralar ham bo'lib kelishi mumkin. Sinonimlar bir xil ma'noni anglatsada ma'lum jihatlarda bir-biridan farq qiladi. Masalan: *Yaxshi, tuzuk, durust, binoyi* kabilar. *Yaxshi* so'zi biror narsaning anchayin holati yuqoriroq darjada ekanligini ifodalasa, *durust, tuzuk, binoyi* so'zlari esa *yaxshi* so'ziga nisbatan kuchsizroq ekanligini ifodalaydi.

Shunday qilib, yozilishi ham, talaffuzi ham boshqa-boshqa bo'lib, umumlashgan, bir tushunchani ifodalaydigan, lekin ma'no nozikliklari bir-biridan birmuncha farq qiladigan so'zlar sinonimlar deb ataladi.



Tilda sinonimlarning ishlatilishi soʻz boyligini koʻrsatib beradi lekin shuni ham aytish kerakki bir-biriga tamoman oʻxshash boʻlgan soʻzlarni nutqda ishlatish soʻz boyligini emas uning aksini koʻrsatadi.

Asosiy qism. Har bir tilning sinonimlar lugʻati boshqa tillardan kirgan soʻzlar orqali hamda shu tilning oʻz xususiyatlaridan foydalanib yasalgan yangi soʻzlar orqali boyib boradi. Masalan: *ishq, muhabbat*- arabcha, *sevgi*- oʻzbekcha; *chashma*-fors-tojikcha, *buloq*- oʻzbekcha va boshqalar.

Qoʻshimchalar qatoridagi sinonimlar *-li; -ser; -dor; -ba* kabi sifat yasovchi qoʻshimchalarda uchraydi va qoʻshimchalar biror narsaga ega ekanlikni, mavjudlikni ifodalaydi: *gulli-guldor; basavlat- sersavlat; -siz; - be; -no* qoʻshimchalari ham xuddi shunday: beodob, odobsiz, nooʻrin, oʻrinsiz.

Ibiralar orasida ham sinonimlik mavjud boʻlib iboralar oʻzaro bir-biri bilan sinonimlik amalga oshiriladi. Masalan: *Mum tishlamoq – Ogʻziga talqon solmoq – jim boʻlmoq, gapirmaslik maʼnosida; Ilonning yogʻini yalagan – Shaytonga dars beradigan* – mugʻombir, aldoqchi insonlarga nisbatan ishlatiladi.

Soʻz doirasidagi sinonimlar *lugʻaviy sinonimlar* deb ham ataladi. Lugʻaviy sinonimlar bir umumiy maʼnoni bildirsa-da, salbiy-ijobiy ekanligiga, qaysi uslubga xosligiga, maʼno darajasiga qarab bir-biridan farq qiladi. *Yuz, aft, bet, bashara, turq, oraz, uzor, ruxsor* kabi soʻzlarda *oraz, uzor, ruxsor* soʻzlari ijobiy boʻyoqqa ega ekanligi hamda badiiy uslubga xosligiga koʻra qolganlaridan farq qiladi. *Bet, aft, bashara, turq* soʻzlarida esa salbiy boʻyoqdorlik kuchli. *Yuz* soʻzi salbiylikni ham, ijobiylikni ham ifodalamaganligi uchun *dominanta soʻz* deyiladi.

Parda yop oraz uzra doxil boʻl ushbu bazm aro

Kim erur xorij agar beparda pardoz aylasang

A.Navoiy

Yuqoridagi gʻazal misolida oladigan boʻlsak, gʻazalda *oraz* soʻzi bor, shu soʻz oʻrniga *bet* yoki *aft* soʻzlarini qoʻyib koʻraylikchi, albatta toʻgʻri kelmaydi. Agar *oraz* soʻzi oʻrniga *bet* yoki *aft* soʻzlarini qoʻllasak gʻazal oʻzining badiiy goʻzalligini va taʼsirchanligini yoʻqotadi.



*Aftimni ko'rgan har kim kuladi,
Bu kulgi o'z yuragimni tiladi...*

G'.G'ulom

Yuqoridagi misrada *aft* so'zi qo'llangan va bu shoirning yuzining holati nochor ahvolda ekanligi, odamlarning buni ko'rib kulishini ifodalash uchun qo'llanilgan. Agarda *aft* so'zi o'rniga *oraz* yoki *uzor* kabi so'zlarni qo'llaganimizda ma'no anchayin g'aliz va tushunarsiz bo'lib qolar edi.

*Lavozim ichun kurashayotganlar orasidagi ikkiyuzlamachilik
Ko'kaldoshning ko'nglini g'ash qildi.*

T.Malik

Yuqorida Tohir Malikning "Shaytanat" asaridan parcha berilgan. Parchada *Ko'ngilni g'ash qilmoq* iborasi qo'llanilgan bo'lib, ibora xavotirlandi, tashvishga tushdi ma'nosida qo'llanilgan. *Dili xira bo'lmoq* iborasini ham shu o'rinda qo'llashimiz mumkin.

Sinonim so'zlar bir ma'noviy qirradi bilan farq qilganda, bunday sinonimlar *ma'noviy sinonimlar* deb ataladi. Masalan: *ho'l*, *shallabo*, *nam* bu so'zlarda *nam* kuchsizlkini, *ho'l* esa namdan kuchliroq, *shallabo* hammasidan kuchliroq ekanligi bilan farq qiladi.

Demak, sinonimlarning o'zaro farqli xususiyatlaridan biri ularning qo'shimcha ma'no nozikliklariga ega yoki ega emasligida bo'lib, bu xususiyat shu sinonimik qatordagivso'zlarning qo'llanish doirasini, qo'llanish o'rnini ham belgilaydi.

Sinonimlik xususiyati *son* so'z turkumidan boshqa barcha so'z turkumlari uchun tegishlidir.

Sinonim otlar: gulzor, chaman, gulshan

Sinonim sifatlar: chiroyli, go'zal, xushro'y

Sinonim fe'llar: yugurmoq, chopmoq

Sinonim olmoshlar: hamma, bari, barcha

Sinonim ravishlar: ko'p, ancha, mo'l, ziyod



Xulosa. Xulosa qilib aytganda sinonimlar inson tilining haqiqiy boyligidir. Sinonimlar nutqimizda biz o'ylagandan ko'ra anchayin muhim rol o'ynaydi. Sinonimlarning muhim ahamiyatini yuqorida asarlar misolida ham ko'rib o'tdik. Sinonimlik lug'ati asosan chetdan o'zlashgan so'zlar tufayli boyib boradi. Lekin chet tilidan o'zlashgan so'zlarni o'z tilimizda muqobili bo'la turib qo'llashda davom etsak tilimizning yo'qolib ketishiga sabab bo'lib qolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Yo'ldoshev, O'.Sharipova *"Tilshunoslik asoslari"* - T.:2007
2. *Academic Research in Educational Sciences DOI: 10.24412/2181-1385-2022-5-1066-1070*